

**QASHQADARYO VILOYATI QARSHI SHAHRI TASHABBUSLI  
BUDJETLASHTIRISH AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
MMT -80K GURUH TALABALARI  
OSTANAYEV RUSTAMJON,  
O'RINBOYEV MASHARIFJON,  
ISMOILOV ISMOIL**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar tashabbusli budgetlashtirish amalga oshirish mexanizmini 3 yillik ko'rsatkichlar orqali tahlil qilingan. Tashabbusli budgetlashtirishda Qashqadaryo viloyatida moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lari, qoldiq mablag'lari, takliflar soni, sarflangan xarajatlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Tashabbusli budget, erkin qoldiq mablag'lari, sarflangan mablag', loyihibar nomi, moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lari.

Xalqaro tajribada tashabbusli budget «Participate» (partisipator) budgetlashtirish nomi bilan ma'lum. «Participate» so'zi ingliz tilida – «qatnashish, ishtirok etish» degan ma'nolarni anglatadi. Fuqarolarning tashabbuslarini hisobga olgan holda budget mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'nalishlarini tanlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilish, shuningdek qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishini kuzatish amaliyoti tashabbusli budget deyiladi.

Tashabbusli budget fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda mahalliy budget mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilish, shuningdek qabul qilingan qarorlar ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratining o'rnatilishidir.

Ma'lumki, fuqarolar o'z yashash joylari (mahalla, tuman, shahar)dagi turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini yaxshi bilishadi va fuqarolar tomonidan taklif etilgan loyihibar aksariyat hollarda asosli hisoblanadi. Chunki, ma'lum bir joyda uzoq vaqt yashayotgan fuqarogina birinchi navbatda qanday masalalarni hal qilish kerakligini ko'rsata oladi.

Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan keng jamoatchilik manfaatiga xizmat qiluvchi biror qarorni qabul qilishda yoki loyihibani amalga oshirishda fuqarolarning fikr-mulohazalari va takliflarini inobatga olinmasligi ularning noroziligiga, ayrim hollarda mablag'lardan samarasiz foydalanishga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, tashabbusli budget jarayonida nafaqat obyektlar, balki hamkorlikda ishslash va murakkab vazifalarni hal qilishga tayyor, mustaqil ravishda loyihibarini

yaratish, hududni rivojlantirish uchun yangi resurslarni aniqlash, shakllantirish va rivojlantirish vakolatiga ega bo‘lgan faol jamoatchilik shakllanadi

### **Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar tashabbusli budgetlashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag’lar miqdori**

#### **1-jadval**

(ming so‘mda)

<b>T/r</b>	<b>Ko‘rsatkich nomi</b>	<b>2021-yil</b>	<b>2022-yil</b>	<b>2023-yil</b>
1.	Yil boshiga qoldiq		1 650 000	1689,0
2.	Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar		17586700	22389,0
3.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan		19236700	
3.1	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘		9983000	22389,0
3.2	Hisobvaraqlardagi qoldiq			
4.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘			597,0

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida tashabbusli budgetlashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag`larni yillar kesimida o`rganib tahlil qildik va tahlillar natijasiga ko`ra ushbu yo‘naltirilgan mablag`lar 2022-yil boshiga qoldiq mavjud bo`lmagan bo`lsa, 2023-yilda 597,0 ming so`m miqdorida qoldiq qolganini ko`rishimiz mumkin . Hisobot davrida “Fuqorolar tashabbusli jamg‘armasi”ga 2022-yilda 1 650,0 ming so`m 1 689,0 ming so`m o‘tkazilgan bo`lib , 2022-yilga nisbatan 2023-yilda 39,0 ming so`m ko`p mablag` ajratilgan. “Fuqorolar tashabbusi jamg‘armasi”dan jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag`lar 2023-yilga nisbatan 2022-yil ko`p miqdorda tadbir va turli xildagi bayramlar o‘tkazilganligi sababli ularni moliyalashtirish uchun 4802,3 ming so`m ortiq mablag` ajratilgan ko`rishimiz mumkin. Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag` 2022-yil 2023-yilga nisbatan kelib tushgan talab va takliflar soni ko`p bo`lgani sababli 7744,1 ming so`m ajratilgan. Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri mahalliy budget Hisobvarag`ida 2022-2023-yillar sarflanmagan qoldiq mablag`lar qolmaganini ko`rishimiz mumkin. “Fuqorolar tashabbusi jamg‘armasi”ning hisob raqamidagi qoldiq miqdori 2022-yil ushbu ko`rsatgich nol qiymatni tashkil qiladi. 2023-yilda bu ko`rsatgich 597,0 ming so`mni tashkil qildi.

2021-yildagi Qarshi shahar tashabbusli budgetlashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag’lar miqdori keltirilmagan

**Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar tashabbusli budgetlashtirish natijasida  
amalga oshirilgan tadbirlar**

**2-jadval**

T/r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag'		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
	<b>Jami</b>		<b>28</b>	<b>21</b>		<b>19 236 700</b>	<b>3769,0</b>
1.	Hududiy ichki yo'llar	9	4		6 615 000	3769,0	
2.	Umumta'lim maktabalarini ta'mirlash va jihozlash	9	8		6 850 000	0,0	
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	3	0		1 430 000	0,0	
4.	Sog'lijni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	2	8		1 400 000	0,0	
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	1	1		875000	0,0	
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	0	0		0	0,0	
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari	0	0		0	0,0	
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)	0	0		0	0,0	
9.	Boshqa tadbirlar	4	0		2 066 700	0,0	

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar tashabbusli budgetlashtirish natijasida jami moliyalashtirilgan takliflar 2022-yilda 28 taga 19236,7 ming so'm, 2023-yilda 21 taga 3769,0 ming so'm bo'lib , yillar davomida pasayish ko`rsatkichlari kuzatilmoqda.

Jumladan, 2022-yilda hududiy ichki yo'llarni ta'mirlash uchun 9 ta moliyalashtirilgan taklif berilgan bo'lsa ushbu ko`rsatgich 2023 yilga kelib 4 taga kamayganini ko`rishimiz mumkin va 2846,0 ming so'm mablag` kamaygan .

Shuningdek, Umumta`lim maktablarini ta`mirlash va jihozlashning eng past ko`rsatgichi 2023-yil 2022-yilga nisbatan 1 taga kamaygan va 8 ta taklif kelib tushgan va ushbu yo`nalishda 2022-yilda 6850,0 ming so`m sarflangan . 2022-yilda 3 ta maktabgacha ta`lim ta`lim muassasalarini ta`mirlash va jihozlash uchun 1430,0 ming so`m pul mablag`i sarglangan. Biroq, 2023-yilda takliflar kelib tushmaganligini ko`rishimiz mumkin.Shuningdek sog`liqni saqlash muassasalarini ta`mirlash va jihozlash uchun emg yuqori 2023-yilda kelib tushgan takliflar soni 2022-yilga nisbatan ko`paygan va yo`nalish bo`yicha 8 ta taklif kelib tushgan. Ushbu yo`nalish bo`yicha 2022-yilda 1400,0 ming so`m ajratilgan.Boshqa takliflar uchun 2023-yilda takliflar kelib tushmagan , 2022-yilda boshqa takliflar uchun 4 ta 2066,7 ming so`m eng yuqori ko`rsatkichni tashkil qilmoqda.

**2021-yildagi Qarshi shahar tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga  
oshirilgan tadbirlar keltirilmagan.**

**Qashqadaryo viloyati Qarshi shaharda Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi  
mablag'larining shakllanish manbalari**

**3-jadval**

Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari		2021-yil	2022-yil	2023-yil
Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiyl xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar			<b>11 114 000</b>	<b>6689.0</b>
Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar			<b>5 597 000</b>	<b>7 100</b>
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari		<b>5 573 475</b>	<b>7 100</b>
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi		<b>11 543 742</b>	
	PQ asosan jamg'armaga o'tkazilgan mablag'			
Jamg'armaga qaytarilgan mablag'				
Jami ajratiladigan mablag'lar			<b>20 536 000</b>	<b>4 578</b>

4-jadvalda biz Qashqadaryo viloyati qarshi shahar tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi ovozlar soni, yutib chiqan tadbirlarni ko'rib chiqishimiz mumkin.

**Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar tashabbusli budgetlashtirish  
natijasida amalga oshirilgan loyihalar tarkibi**

**4-jadval**

<b>T/r</b>	<b>Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)</b>	<b>Jami</b>	<b>Moliyalashtirish</b>
		<b>to‘plagan ovozlar soni</b>	<b>uchun ajratilgan mablag’ miqdori (ming so’m)</b>
<b>2021-yilda</b>			
1.			
2.			
3.			
<b>2022-yilda</b>			
1.	43-DMTTni ta'mirlash	1508	300 000
2.	4-sonli poliklinikani ta'mirlash	1499	500 000
3.	Qavali mfy Sog'lomavlod bosh ko'chasi	1476	520 000
4.	40-DMTT ni ta'mirlash	1430	980 000
5.	Qavayli mfy yoshlik massivga gps yotqizish	1097	850 000
6.	9-maktabni joriy ta'mirlash	1041	800 000
7.	4-umumiy o'rta ta'lim maktabini ta;mirlash	939	700 000
<b>2023-yilda</b>			
1.	Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Qashqadaryo filialida bemorlarni yaqinlari va qarindoshlari uchun zamonaviy ko'rinishga ega qulay shart sharoitlar bilan birga quyish paneli bilan jihozlangan 2 qavatli kutish zali qurish.		1200.000
2.	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassalari agentligi tizimidagi Qarshi Shahar 1-sonli ixtisoslashtirgan maktab-internatida 120 o'rinali Faollar zall qurish		1320.000

3.	Qarshi Shahar tibbiyot birlashmasiga kompyuter xamda printer jixozlari olish		1200.000
4.	Qarshi Shahar tibbiyot birlashmasini tibbiy moddiy texnik bazasini (zamonaviy UZI apparat) sotib olish.		1200
5.	Qashqadoryo viloyati bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi Neyroxirurgiya bo'limini zamonaviy tibbiy jihozlar bilan moddiy texnik bazasini boyitish		1320.000
6.	Qavayli mfy Sog'lom avlod ko'chasini 1500 metr uzunligi eni 6 metrlik asfalt qoplamasini yotqizish		800.000
7.	Qarshi Shahar Bunyodkor mfy ichki yo'llarini 2.2 km qismini ta'mirlash zarur		1145.5

### Xulosa

Yuqoridagi jadvallar malumotlaridan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, har bir mavsum uchun ajratilgan pul mablag'lari, ovozlar soni va loyihalar soni ham deyarli hammasi yildan yilga o'sib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Demak, Tashabbusli byudjetlashtirish jarayonining ilk bosqichi 2021-yilda bo'lganligni korishimiz mumkin bunda ko'rsatkichlar sono va natijalar kam ekanligini guvohi bo'lmoqdamiz. Keyinchalik ushbu ko'rsatkichlar bir necha barobar yuqorilab ketganligini guvohi bo'ldik. Bunday bo'lishiga asosiy sabablaridan biri malum bir hudud fuqarolari tomonidan turlicha har xil ko'p loyihalar emas eng asosiy bo'lgan yagona loyihani kiritishlari va shu loyiha uchun ovoz to'plash bo'lsa boshqa bir tomonidan tashabbusli byudjet saytiga qoyilgan loyihalar o'rtasidagi raqobat muhitni kuchli ekanligi hamda 2022-yilga kelib aholining «Tashabbusli budget» loyihasiga bo'lgan qiziqishi keskin ortganligi sababli ham ovozlar yuqori ko'rsatkichlarda o'sib borgan. Qashqadaryo viloyati Qarshi shahari 2021-2023 yillarda loyiha moliyalashtirilib tumandagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilingan. Xulosa sifatida yana shuni ta'kidlash mumkinki «Tashabbusli budget» bu birinchidan, aholini ijtimoiy muammolarini yechishning yagona yo'li bo'lmasa ham, biroq bu loyiha aholimizni uzoq yillardan beri qiynab kelayotgan ijtimoiy muammolarni hal etishda hamjihatlik bilan harakat qilishni, jamoaviy qarorlar qabul qilishni, bиргаликда harakat qilib maqsadga erishish texnologiyalarini o'rgatsa, ikkinchidan, jamoatchilik nazoratini kuchayishiga, mahalliy deputatlarni faollashuviga hamda aholini budget mablag'larini ochiqlik va shaffoflik tamoyillari asosida taqsimlanishida faol ishtirok etishi va davlat tomonidan berilayotgan imkoniyatlardan yanada samaraliroq foydalanishni o'rgatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent: "Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишини таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-хуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Файбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'rroqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Файбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).

20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг хуқуқий асослари. - Science and Education, 2023
22. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Xайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Xайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
26. Xайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Xайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. Икрамjon Машарипов. Ўзини-ўзи бошқариш органлари-фуқаролик асосий меъзони. Общество и инновации, 2022, 25